

AYOLLAR JINOYATCHILIGI MAXSUS PROFILAKTIKASI DOIRASIDAGI CHORA-TADBIRLAR

Turg'unov Shohijahon Muhiddin o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 318-guruh kursanti.

Annotatsiya: *Profilaktika inspektorining jamoat joylarda alkagol mahsulotlarni iste'mol qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning tushunchasi, o'ziga xos jihatlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarning amaliyot taxlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual xujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqbuzarlik, jinoyatchilik, jazo tizmi, jamoat joyi, alkagol mahsulotlari, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan shaxslar, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Ta'kidlash joizki, jinoyatka qarshi kurash va jinoyatlar profilaktikasini ta'minlashda ichki ishlar organlari faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladigan huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha jarayon izchil davom etmoqda. Bugungi kunda ichki ishlar organlari har qanday yo'nalishdagi faoliyatni hamkorliksiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ayniqsa, ichki ishlar organlarining ma'muriy hududda xizmat olib borayotgan sohaviy xizmatlarning oldida turgan asosiy va dolzarb vazifalardan biri ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatka qarshi kurash hamda uning oldini olishga qaratilgan dastlabki profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Umuman olganda, ayollar bilan ishlash ichki ishlar xodimlarida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai- nazardan jamiyatdagi har qanday xotin-qizlar bilan ishlashda ichki ishlar organlari, birinchi galda, ushbu toifadagi shaxslar bilan ishlashga, ularga tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llashga vakolatli va qobiliyatli bo'lgan jamoatchilikka, aniqlikni aytganda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir. Profilaktika xizmatlari ayollar o'rtasida jinoyatning oldini olishda asosan ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan quyidagi hamkorlikdagi ishlarni olib boradi:

- ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish,
- keng jamoatchilik o'rtasida turli mavzularda suhbatlar o'tkazish,
- fuqarolarni jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga rioya etish hamda ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash,⁴⁴
- shaxsda endi shakllanayotgan va rivojlanayotgan g'ayriijtimoiy salbiy xulq-atvorni to'xtatish, zararsizlantirish,
- sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning hamda jinoyatlarning oldini olish,

- fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish,
 - ommaviy axborot vositalari orqali ayollar o'rtasida jinoyatningni oldini olishga qaratilgan mavzularda chiqishlar qilish,
 - xizmat hududidagi narkotik moddalar, shahvoniy ruhdagi materiallarni tarqatuvchilar, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etayotgan jinoiy guruh tarkibidagi ayollar ulushining ko'pligi, shuningdek, axloq- odob doirasidagi jinoyatlarning kelib chiqishida ayollarning hissasi katta ekanligini fuqarolarga yetkazish,
 - jinoyat sodir etishga moyil ayollar, ularning aloqalari, shuningdek, kutilayotgan jinoyatlar to'g'risida muntazam ravishda axborot almashib, ularning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'radi.
 - xizmat hududida diniy-ekstremistik oqim tarafdorlari, ayniqsa, ushbu oqim ta'siriga tushib qolgan yosh qizlar va ayollarni aniqlash maqsadida mahalla faollari, korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari, din ishlari bo'yicha qo'mita vakillari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, maktablarning ma'muriyatlari bilan muntazam ravishda fikr almashib, aniqlangan holatlar yuzasidan JQ xizmati xodimlariga xabar beradi.
 - qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini milliy qadriyatlarimizga tayangan holda keng targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, - qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olibborilayotgan ishlarning samaradorligini oshiriga ko'maklashish, - qizlarning sog'lig'ini saqlash, sog'lom oilani shakllantirish, qizlar sportini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishda qabul qilingan davlat dasturlari ijrosini ta'minlashda ishtirok etish,
 - qizlarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash,
- Shu maqsadda hududdagi davlat organlari, jamoat tuzilmalari, korxona, muassasa va tashkilotlarga tegishli mazmundagi taqdimnomalar kiritish masalalarida hamkorlikda ish olib boradi. Ichki ishlar organlari tayanch punktlari negizida profilaktika inspektorlari ayollar o'rtasida jinoyatningni oldini olish faoliyatini tashkil etishda JTSTB xodimlari bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:
- xizmat hududidagi narkotik moddalar, shahvoniy ruhdagi materiallarni tarqatuvchilar, o'g'irlangan mollarni olib sotuvchilar, fohishalik bilan shug'ullanuvchilar, valyuta operatsiyasi, reket, daydilar, tilanchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni aniqlash maqsadida mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxonalar, bozorlar, kinoteatrlar, parklar, videosalonlar, yotoqxonalar, shohbekatlar, aeroportlar, vokzallar va jinoiy unsurlar to'planadigan boshqa joylarni tekshiradi hamda aniqlangan zarur ma'lumotlarni jamoat tartibini saqlash bo'limi inspektoriga taqdim etadi.

-surunkali ravishda jamoat tartibini buzuvchi yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi, oilasi notinch bo'lgan, giyohvandlikka muhtalo bo'lgan ayollarni nazorat qiladi. - jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va cheklash, o'z vakolatlari doirasida profilaktik tadbirlar o'tkazish.

Ichki ishlar tayanch punktlari negizida profilaktika inspektorlarining odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olish xizmati xodimlari bilan ayollar o'rtasida jinoyatning profilaktikasida quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:

- odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi jinoyatlarni oldini olish xizmati xodimi o'ziga biriktirilgan hududni ta'riflovchi, ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni oladi va o'rganib chiqadi, tahlil qiladi va xizmat faoliyatida foydalanadi.

- hamkorlikda xizmat hududida foxishaxona saqlovchi yoki qo'shmachilik qiluvchi, foxishalik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni aniqlash, ularga nisbatan qonun bilan o'rnatilgan tartibda javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash choralari ko'rish,

- hammom va saunalar, massajxonalar, oromgoh, sanatoriya va profilaktoriy, dala hovli, mehmonxona hamda yotoqxonalar, o'z uylarini ijaraga beruvchi shaxslarning faoliyatini qat'iy tartibda nazorat ostiga olish, ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan turli noqonuniy xatti- harakatlar, shuningdek, axloq-odob doirasidagi jinoyatlarni aniqlash yuzasidan maxsus tadbirlar o'tkazib borish

- hamkorlikda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, turli teritanosil va OITS kasalliklari tarqalishining oldini olish, bu toifadagi kasallikka chalingan shaxslarni aniqlash va bu borada jamoatchilik ta'sirini oshirishga bag'ishlangan profilaktik mazmundagi uchrashuvlar, bevosita muloqatlar va davra suhbatlarini o'tkazadilar. Ichki ishlar organlari jinoyatlarning oldini olish xizmati tarkibidagi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati xodimlari uchun tayanch punktlarda alohida xizmat xonalari ajratilmagan bo'lmasada, ular axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish ta'riqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilingan ayollarni nazorat qilish borasida o'z faoliyatini hudud profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda tashkil etadilar. Ichki ishlar organlari tayanch punktlari negizida ushbu hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Birinchidan, hududda axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish ta'riqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish bunday toifadagi ayollarga ijtimoiy- huquqiy yordam ko'rsatish. Ikkinchidan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan va shartli hukm qilingan ayollarning profilaktik hisobini yuritish, ularning takroran jinoyat sodir etishlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora- tadbirlarni amalga oshirish.

Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda bir qancha ishlarni tashkil etadi. Ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika (katta)

inspektorlari ayollar o'rtasidagi jinoyatga qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha faoliyatini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqariq organlari huzuridagi "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va jinoyatlarning oldini olish faoliyatini samarali tashkil etishda "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasining o'rni beqiyos. Posbonlar o'zlari yashayotgan hududda sodir etilishi mumkin bo'lgan turli jinoyatlar, jumladan, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda, sodir etilgan jinoyatlarni ochishda, shuningdek, ichki ishlar idoralari hisobida turgan ilgari sudlangan ayollar, jinoyat qilishga moyil shaxslar bilan ishlashda, qizlar uchun harxil sport o'yingohlari, bichish, tikish va boshqa turdagi to'garaklarni tashkil etishda profilaktika inspektoriga ko'maklashadi. Ta'kidlash joizki, jinoyatning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasida va ongida aks etib, ular jamiyatga zid yo'nalishni, qarashlarni, harakatlarni shakllantiradi yoki ularni kuchaytiradi, jonlantiradi. Shuning uchun ham jinoyat sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy-psixologik husuiyatga ega.

Ayollar orasida sodir etilayotgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini asosan ijtimoiy hayotning bunday tasniflash zarur profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni qayerlarda amalga oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Jinoyat sodir etuvchi ayollar profilaktikasini amalga oshirishdan oldin yuqorida keltirilgan barcha toifadagi shaxslarning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosan shaxsdagi jinoiy xulqni keltirib chiqaradigan hususiyat va sifatlarni aniqlash, ularni baholash va shunga ko'ra ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotgatatbiq etishni nazarda tutadi.

Profilaktik ishlarni samarali amalga oshirishda huquqbuzar va unga moyilligi bo'lgan ayollar bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshirilishi e'tirof qilinadi.

To'g'ri muloqatga kirishish-ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatidir. Bu, ayniqsa profilaktik faoliyatning ajralmas qismi sifatida tan olinadi.

Zero, profilaktika ishlar huquqbuzar ayollar bilan dastlabki munosabati muomala orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar bilan munosabatini o'rnatish olmasligi, amaliy faoliyat ishtirokchilarining psixik holatlarini, ularning mazkur jarayondan ko'nikmalarini aniqlay olmasligini, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmasligi, shaxsni uning ichki kechinmalari va o'z o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmasligi psixologiyada kommunikativ uquvsizlik yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi.

Bunda profilaktika inspektori va shaxs bir birini tushuna olmasligioqibatida jinoyatlar sodir etilishining oldi olinmay qoladi va jinoyatlar yana sodir etilishi mumkin.

Shuning uchun ham zamonaviy ijtimoiy psixologiya yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida, huquq psixologiyasida ichki ishlar organlari xodimlarini kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda kommunikativlik hosil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, shaxslararo munosabatga kirishib, o'z professional mahoratini namoyon eta olmaydi.

Profilaktika inspektori va mahalla faollari shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayonida psixologik to'siqlarga duch keladi. Bu psixologik to'siqlar befarqlik, ishonmaslik, nafrat, xarakteri bir biriga to'g'ri kelmaslikdan kelib chiqadi. Demak, psixologik to'siqlarning bor yoki yo'qligi odamlarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq.

Masalan, odam o'ldirish uchun ilgari sudlangan shaxslar bilan psixologik aloqa shratish jarayonida bir qancha psixologik to'siqlarga duch keladi. Bu psixologik to'siqlar faoliyat samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ayollar o'rtasida jinoyatningning oldini olishda xodim shaxs bilan muloqat qilish jarayonida shaaxsning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning sub'ektiv dunyosi, rejalari, qilmishlarini tushunishga harakat qilishi lozim. Shu bois birinchi taassurotning yuzaga kelishida uch bosqichda ish olib borish kerak bo'ladi, ya'ni:

1. jinoyat sodir etuqchi ayolning tashqi xususiyatlari (tashqi ko'rinishi, mimikasi, kiyinishi, yurish-turishi, ahamiyatli jihatlari va.h.k) ni aniqlash;

2. jinoyat sodir etuvchi ayolning emotsional, xulqiy va umumiy psixik xolatlarini belgilash

3. maqsadga muvofiq fikr yuritish va emotsional ta'sir ostida hamkor obrazni tuzish(ijtimoiy-rolli va individual-shaxsiy tomonlarini nazarda tutgan holda) va.x.k.

Amaliyotda insonlarning psixik faoliyatidagi qonuniyatlarga asoslangan holda ulardan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni turli xil usullar orqali amalga oshiriladi(masalan, onga ta'sir o'tkazish va ong ostidagi doiraga ta'sir o'tkazishning maxsus usullari orqali).

Qiziqtirayotgan shaxsga baho berishda formal va noformal usullardan foydalanish mumkin.

Formal usullarga maqsadga yo'naltirilgan kuzatuv va suhbat, hujjatlarini tahlil qilish, tarjimai xolni o'rganish, turli anketa ma'lumotlarini qo'llash kabi usullar kiradi.

Noformal usullarga turli intuitiv imkoniyatlar yordamida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar kiradi.

Jinoyat sodir etuvchi ayollar shax'siy va ijtimoiy-psixologik omillariga:

- umumiy ma'lumotlari
- tashqi belgilari
- hayotiy yo'li
- hayotiy tarmoqlari
- xulqi
- temperament va xarakteri

- xulqining motivatsiyasi
- ijtimoiy moslashuvi
- qobiliyatlari.

Muloqat jarayonida yuqorida keltirilgan shaxsiy va ijtimoiy psixologik omillar asosida qiziqtirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot yig'iladi va unga baho beriladi.

Ayollar o'rtasidagi jinoyatlarning cabab va sharoitlari muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

- ayollar o'rtasida jinoyatchilikning rivojlanishida so'nggi yillarda ko'zga tashlangan tashvishli tendensiyalar;
- jamiyatga, jamiyatdagi ma'naviy-psixologik muhitga, jamiyatning alohida institutlariga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga ayollar jinoiy xulq-atvorining salbiy ta'siri ortib borayotgani;
- ayollar o'rtasida jinoyatchilikning tuzilishida ta'magirlik jinoyatlari yetakchilik qilishi, bu jinoiy qilmishlar davlatning iqtisodiy tuzumiga va fuqarolarning shaxsiy mulkiga katta moddiy zarar yetkazayotganligi,
- ayollar jinoyat sodir etishiga turtki beruvchi o'ziga xos sabablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib, izchil profilaktika ishini yo'lga qo'yishning zarurligi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ayolning nozik qo'llariga kishan emas, gul, qalbiga yovuzlik emas, ezgulik yarashadi. U jamiyatimizning ko'rki bo'lmog'i lozim. Uning tillaridan pushaymonlik, afsus nolasi emas, allalar uhsin, baxtdan, toledan kuylasin. Buning uchun esa ayollar qonunbuzarligining oldini olish faqat huquq-tartibot idoralari yoki tegishli tashkilotlarnigina emas, hammamizning vazifamizga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.
3. Таштемиров А. Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш давлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – С. 133-139.
4. Абдухалилов Х. Д. Ў., Валиев Б. Б. Ў. Босқинчилик жиноятларини профилактика қилишнинг долзарб масалалари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 116-119.
5. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

6. Nasilloev A. The absence of civil conflicts-a priority direction in the activities of internal affairs bodies in ensuring the rule of law //American journal of education and learning. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 770-776.
7. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
8. Насиллоев А. Полиция ходимининг талаби тушунчаси ва унинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 113-115.
9. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61.
10. Зиёдуллаев М., Абдуллаев Ф. Ички ишлар органлари томонидан қўлланиладиган маъмурий чеклаш чоралари тушунчаси, моҳияти ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 9-15.
11. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боглик жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – С. 11.
12. Abduxalilov H. D., Xusanova M. M. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 146-148.
13. Насиллоев А. Ички ишлар органларининг лицензиялаш ва хабардор қилиш тартибидаги назорат ваколатлари ва уларни такомиллаштириш масалалари //Наука и инновация. – 2024. – Т. 2. – №. 38. – С. 23-25.
14. Abduxalilov X. et al. Profilaktika inspektorining qo 'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash bilan bog 'liq jinoyatlar bo 'yicha tezkor qidiruv bilan hamkolrligini takomillashtirish //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 78-84.